

SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI**Amini Aziz Ahmad**

TerDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6639494>

Annotasiya. Ushbu maqolada Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida qo'llaniladigan dehqonchilik asboblari nomlari va ularning O'zbekiston o'zbeklari nutqida qanday talaffuz qilinishi izohlanib, ularning hozirgi qo'llanish doirasi o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Kurak, O'roq, Bel, Qop, Chorriq.

НАЗВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРУДИЙ В РЕЧИ УЗБЕКОВ НАРОДА СЕВЕРНОГО АФГАНИСТАНА И ИХ ЯЗЫКОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В данной статье разъясняются используемые в речи узбеков Северного Афганистана названия сельскохозяйственных орудий и то, как они произносятся в речи узбеков Узбекистана, а также рассматривается их современный объем.

Ключевые слова: Лопата, Серп, Пояс, мишок, железный ветка, трактор.

NAMES OF AGRICULTURAL TOOLS IN THE SPEECH OF THE UZBEKS OF THE PEOPLE OF NORTHERN AFGHANISTAN AND THEIR LINGUISTIC INTERPRETATION

Abstract. This article explains the names of agricultural implements used in the speech of the Uzbeks of Northern Afghanistan and how they are pronounced in the speech of the Uzbeks of Uzbekistan, and also considers their modern volume.

Keywords: Shovel, Sickle, Belt, bag, iron branch, tractor.

KIRISH

Afg'oniston Islom Respublikasida aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullanib, kundalik hayotiy ehtiyojlarini shu kasb orqali qo'plab kelmoqdalar. Hozirgi kunda shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar nutqida dehqonchilik asboblari bilan bog'liq ko'plab leksemalar faol ishlatiladi. Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun zamon bilan yonma-yon o'sib, rivojlanib boradi. Bu o'sish va rivojlanish, asosan, tilning lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti tillarga yangi so'zlar va yangi tushunchalarni olib kiradi. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari shevasida ham ana shunday, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bir qator dehqonchilik asboblariga daxldor atamalar kirib kelgan: traktor, sepal, trishal kabi leksemalar bunga yorqin misol bo'ladi. Nutqdagi so'zlar vaqt o'tish natijasida unutilishi, tarixiy so'zga aylanishi mumkin. Buning natijasida tilimizdagi ayrim leksemalar nafaol leksik qatlamga o'tib qolmoqda, bugungi kunda: omoch, buyuntiriq, peshkashay kabi atamalarning eskirib borayotganligi kuzatiladi. Shuning uchun ham, mazkur maqolada ana shunday yo'qolib borayotgan leksemalarni yo'qolib ketishini oldini olishni maqsad qildik. Bunday so'zlar bugungi kunda turmush tarzini ifodalovchi barcha sohalarda mavjud.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ana shunday sohalardan biri dehqonchilik asboblari nomlari bo'lib texnika taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda bu sohaga ham ko'pgina so'zlar kirib kelib ayrim so'zlar iste'moldan chiqib ketmoqda.

Qayrog'tosh - "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "silliq yoki qayrab, charxlab, maxsus shakl berilgan tosh" deb izoh berilsa, "O'zbek tili so'zligi" da qayrog'tosh, o'roq yoki shunga o'xshash narsalarni tezlash (o'tkir) qilish maqsadida ishlatiladigan tosh nomi, deb izohlanadi.

Mazkur predmetdan asosan Afg'oniston dehqonlari ko'proq foydalanadilar, bu tosh tabiiy shaklida mavjud bo'lganligi uchun, dehqonlarga moddiy tomondan yordam bo'ladi, ya'ni o'roqni tezlash kerak bo'lganda shundan foydalanadilar.

Kurak - "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "sochilgan narsalarni sindirish, kurash, to'plab biror narsaga solish uchun ishlatiladigan, yog'ochdan yoki metallardan yasalgan uzun sopli asbob" deb izohlanadi. Shimoliy Afg'onistonda bu uskunadan, asosan yanchilgan bug'doy, zira, zig'ir kabilarning donini yaxshi tozalanish uchun mazkur asbob bilan solishadi. Qor kurash maqsadida ham foydalanadilar. G'allaning donini somondan ajratish hamda donni tozalash uchun foydalaniladigan dehqonchilik predmeti.

O'roq - so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da shunday "turli boshqli ekinlar, beda, pichan, bug'doy, arpa va o'tlarni qo'lda o'rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o'tkir tig'li mehnat quroli" deb berilgan, "O'zbek tili so'zligi"da "g'allani o'rish uchun ishlatiladigan predmet" tarzida izohlangan. Ikkala lug'atnoma izohlariga diqqat bilan qaraganda, bu predmatning ikkala tomonida bir xil nom va bir xil ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin.

Bel - pastki qismi temir, yuqorisi yog'ochdan tuzatilgan dehqonchilik predmeti. Bundan asosan yer ag'darish, pal tuzatish hamda suv tutish uchun foydalaniladi. Mazkur leksema "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol" deb izohlanadi. O'zbekistonda yashovchi dehqonlar katmon (ketmon) dan ham bel o'rnida foydalanadilar. Ammo shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlar ikkala asbobdan ikki xil foydalanadilar: bel bilan yer ag'darishsalar, ketmondan faqatgina tikanlarni chopish maqsadida foydalanadilar.

Mo'za / etik - charimdan tayyorlangan, bundan asosan dehqonlar, suv tutish, yer ag'darish va ekin ekish maqsadida o'z oyoqlarini yaxshi tarzda issiq – soviqdan asrash uchun kiyiladigan oyog' kiyimi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "boldirni bekitib turadigan uzun qo'njli, poshnali poyafzal" deb izohlanadi. Mazkur oyoq keyimga nisbatan shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar **mo'za** lekimasini ham qo'llaydilar.

TADQIQOT NATIJALARI

Cho'bishoxa- cho'p (yog'och) dan tayyorlangan dehqonchilik predmeti. Bu leksemaga lug'atnomada hech qanday izoh berilmagan. Mazkur asbobdan asosan somonni qopga solish, somon qoldiqlarini yig'ish maqsadida foydalanadilar. Bu atama O'zbekiston o'zbek dehqonlari og'zaki nutqida "shaxa" yoki "shoxa" tarzida talaffuz qilinadi.

Xayma - matodan tayyorlangan, yozda quyoshdan, kuzda qor, yomg'irdan saqlanish maqsadida foydalanadigan dehqonchilik asbobi. Xayma so'zi forscha bo'lganligi uchun O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar nutqida ishlatilmaydi. Bu leksema o'rnida ko'pincha "kappa" atamasi qo'llaniladi.

Qirtish - yuqori qismi yog'och, pastki qismi temirdan tashkil topgan. Yerga tushgan o'simlik poyalarini bir joyga yeg'ish uchun foydalaniladigan dehqonchilik uskunasi. Qirg'ta tishdan tashkil topgani uchun, qirtish deyiladi. Ayrimlari qirg'tadan kam bo'lishi ham mumkin. Qirtish leksemaga oid "O'zbek tilining izohli lug'ati" da hech qanday izoh berilmagan. Mazkur atama O'zbekiston o'zbek dehqonlari og'zaki nutqida ishlatilmaydi.

Ko'za - sapoldan, loydan tayyorlangan. Dehqonlar yoz payti dalaga chiqanlarida ichimlik suvini normal holatda saqlaganligi uchun, suvni mazkur asbob ichga solib qo'yadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo'g'zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish" deb izohlangan. Mazkur so'zga tegishli izohlarga qaraganda, shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu leksema ikkala tomon o'zbeklari nutqida ham bir xil talaffuz va ma'noga ega. Mazkur leksema hozirgi kunda O'zbekiston aholisining og'zaki nutqida kamda-kam uchraydi. Ammo, juda chekka qishloqlarda bu atama eskirmagan, hamon qo'llanilib kelinmoqda.

Qo'riq - o'zlashtirilmagan, lekin dehqonchilik qilish uchun istiqboli bor yerlar; oldinlari ekin ekilgan, keyinchalik ekilmasdan tashlab qo'yilgan yer. Mazkur yerdan asosan, o't o'stirib mollarni boqish maqsadida foydalanadilar.

Chorriq - dehqonlar kiyadigan maxsus oyoq keyim. Xom teridan tikilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "qattiq xom teridan tikilgan, asosan tog'li hududlarda xalqlar orasida rasm bo'lgan oyoq keyimi" deb izohlanadi. Mazkur atamaning qo'llanishi ikkala hududda yashaydigan o'zbeklar uchun ham deyarli bir xil. Farqli tomoni shundaki daryoning narigi tomonida turgan o'zbeklar mazkur oyoq kiyimdan asosan dehqonchilik ishlaridan biri bo'lmish, bug'doy yoki arpa kabilarni o'rayotganlarida, bu o'simliklarning poyasini yerga qolgan qismi oddiy oyoq kiyimni teshib oyoqqa zarar yetkazgani uchun, mazkur oyoq kiyimdan foydalanadilar.

Bo'jiy - plastikadan tayyorlangan, g'allaning donini ichiga solish uchun mo'ljallangan dehqonchilik predmeti. Bo'ji leksemasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "bolalarni qo'rqitish yoki aldash uchun (jin), (ajina) kabi ma'nolarda ishlatiladigan so'z" deb izohlanadi. Bu yerda juda katta farqni kuzatishimiz mumkin, mazkur atama shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida dehqonchilik asboblaridan birini ifodalash uchun qo'llanilsa, O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar o'rtasida bolalarni qo'rqitish maqsadida qo'llaniladigan atama hisoblanadi.

Qanor (qop) - plastikadan tayyorlangan, kattaligi bir yarim, ikki metr atrofida, somon solish uchun mo'ljallangan dehqonchilik predmeti. O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar qanor leksemasi o'rni ko'pincha qop atamasi qo'llaydilar. Qop leksemasi shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida ham mavjud, lekin asta sekinlik ila yuqolib bormoqda, buning asosiy sababi fan-texnikaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq, chunki oldinlari faqatgina jundan tayyorlangan qopdan foydalanganlar, vaqt o'tishi bilan qanor predmeti chiqib, asta-sekinlik ila qop leksemasini joyini egallab bormoqda. Hozirgi kunda qop so'zi chekka qishloqlardagina ishlatiladi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Ammo, hozirgi kunda ham O'zbekiston aholisi o'rtasida faol ishlatiladi.

Qavda - g'allani tashish uchun mo'ljallab ep bilan bog'lanib qo'yilishi. Bu leksema "O'zbek tilining izohli lug'ati"da izohlanmagan. Mazkur atama O'zbekiston dehqonlari nutqida qo'llanilmaydi.

Temirshoxa - pastki qismi temir yuqori qismi yog'och, to'rtta uzun tishdan tashkil topgan dehqonchilik asbobi. G'allaning qavdalarini hamda tikan tashish uchun foydalaniladigan dehqonchilik predmeti.

G'albur - maydamol ichagidan tayyorlangan, g'allaning donini tozalash uchun ishlatiladigan dehqonchilik predmeti. Bug'doy doni bilan aralashgan tuproq, va o't -o'lanlarning urug'ini ajratish maqsadida mazkur asbobdan foydalanadilar.

Chig'il - maydamol ichagidan tayyorlangan, teshigini kattaligi g'alburdan kattaroq, g'allaning donini tozalash uchun ishlatiladigan dehqonchilik predmeti. Mazkur asbobdan bug'doy doni bilan aralashib qolgan poxollarni, dondan ajratish masadida, bu uskunadan foydalanadilar.

Sepal – „forsa, se – uch, pal – tish“ uch paldan iborat bo'lgan, yerni traktor orqali ag'daradigan dehqonchilik predmeti. Bu peredmet yerni yaxshi ag'darganligi uchun, ya'ni yer yuzidan yarim metrga yaqin chuqurlikka ag'darganligi uchun, mazkur vositadan asosan, dayma (arig' suv bormaydigan) joylarni har ikki yilda, bir marta, ekilgan ekinlarni ildizi kattarib yaxshi hosil berish maqsadida amalga oshiriladi.

No'pal – “forsa, no' – to'qqiz, pal – tish” to'qqiz paldan tashkil topgan, yerni traktor orqaril ag'daradigan qo'shchilik predmeti. Sepalni ustidan bug'oy, arpa, zira, zig'ir kabilar, sepilganidan keyin bug'doy ko'milishi uchun bajariladigan ish. Bundan tashqari yumushoq yer yoki o'tgan yili sepal qilingan yerlar: bug'doy, arpa, zira, zig'ir, mosh kabilarni ekish maqsadida no'pal qilinadi.

Hajdopal - “forsa, hajda – o'n sakkiz, pal – tish“ kabi so'zlardan tashkil topgan. O'n sakkizta paldan tashkil topgan qo'shchilik predmeti. Hozirgi kunda unchalik foydalanilmaydi.

Mola - yog'och yoki temirdan yasalgan, kesaklarni maydalash hamda ag'darilgan yerni tekislashda xizmat qiladi. Tarkor yoki ho'kiz orqasiga taqilib ag'darilgan yer ustidan yuritiladi.

Rakol / roko'l - traktorning old qismiga taqilib, ekiladigan yerni teks qilish, barcha joyi bir xil suv ichishi maqsadida mazkur predmet orqali bajariladigan ish va shu ishni bajaradigan predmet nomi.

Buyintiriq - yog'ochdan tayyorlangan. Ikki ho'kkizni yelkasiga qo'yilib, omochni tortish uchun xizmat qiladi.

Omoch/amoch - ulov (ot, ho'kiz) qo'shib yer haydaladigan yog'och asbob. Omoch qadimiy (hali traktor va plug bo'lmagan davrlar)da asosiy yer haydash quroli hisoblangan. Omoch, asosan, 3 qism: tana, quloq va o'qdan iborat bo'lgan. Omoch qismlari qattiq yog'ochdan tayyorlanadi. Tananing old tomoni uchli bo'lib, unga tish (metall tig') kiydirilgan (shu tig' bilan yerni ag'darib ketilgan). Quloq — tananing orqa tomoniga birlashtiriladigan yog'och dasta. Qo'shchi shu quloqdan ushlab omochni yo'naltirib borgan. O'q — tananing old tomoniga, quloqning pastrog'iga qoqiladigan chorqirra, yassiroq yog'och. Oq ot yoki ho'kiz bo'yin tirig'iga mahkamlangan. U tana va quloqni oldinga tortib borgan. Omoch ba'zi mamlakatlar (masalan, Hindiston, Afg'oniston) da hozir ham ishlatiladi. Ammo O'zbekistonda yerlar pluga bilan haydaladi.

Shamina - cho'p (yog'och) dan tuzalgan, ikkala xo'kkizni ikki tomoniga ketishga yo'l qo'ymaydi. Ikkala xo'kkizni ham yelkasiga ildirib qo'yiladi.

Terkish - arqondan tayyorlanadi, bo'yintiriqni o'rtasiga qo'yiladi, omochni tortish uchun yordam beradi.

Tish - temirdan tayyorlangan, yerni haydash uchun xizmat qiladi. Omoch, sepal, no'pal, hajdopal kabi dehqonchilik asboblarining yerni kovlaydigan (ag'daradigan) qismi.

Pechkashay - yog'ochdan tayyorlangan, terkishga bog'lanib omochni tortishga yordam beradi.

Tevana - temirdan tayyorlangan. Bug'doy, arpa va shu kabilarning qopga solgandan keyin, yerga to'kilishini oldini olish uchun mazkur qopni og'zini ip bilan, tevana yordamidan tikadilar.

Chapar – qadimgi dehqonchilikda galagov jarayonida somonning yaxshi mayda qilishga yordam beradigan dehqonchilikka oid asbob. Bu leksema “O'zbek tilining izohli lug'ati”da izohlanmaganligini eslatib o'tishimiz darkor. Galagov jarayonida chiqadigan somonga nisbatan ham, chapar somon leksemasi ishlatiladi.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan, dehqonchilik bilan aloqador bo'lgan leksemalarning ko'pchiligi, shimoliy Afg'oniston va O'zbekiston o'zbeklari o'rtasida, bir xil ma'no va bir xil talaffuzga ega ekanligini, yaqqol ko'rishimiz mumkin, biroq shunday leksemalar ham borki, ular faqatgina shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida qo'llanilib, O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar, mazkur atamani ishlatmaydilar. Shu bilan birgalikda yuqorida keltirilgan leksemalar ichida, shunday atamalar ham borki, fan-texnika rivojlanishi natijasida, yuqolib ularning o'rmini fors-tojik, inglizcha so'zlar egallamoqda. Masalan, galagov, omoch, buyuntiriq kabi so'zlar. Hammamizga ma'lumki o'sish va rivojlanish tilimizga yangi leksemalarning kirib kelishiga, tilimizdagi atamalarning eskirishiga va yoqolib ketishiga sabab bo'ladi. Nutqimizdagi sof turkiycha so'zlarni saqlab qolish uchun, kirib kelayotgan yangi texnologiya asboblari munosib o'zbekcha muqobilini topib, o'zbekcha nom bilan aytilishi darkor. Shimoliy Afg'onistonda millionlab turkiy zamon xalqlar, ayniqsa o'zbeklar yashab kelmoqda, ma'lum siyosiy va ijtimoiy omillarga ko'ra, ular o'z tili va adabiyotlarini rivojlantirish va nodir til, adabiyot durdonalarini avlodlarga yetkazish uchun kurashmoqdalar. Azaldan turkiy zamon xalqlar o'z tili va madaniyatini saqlash va uni yuksaltirish yo'lida tinmay kurashib kelganlar. Mamlakatda davlat rasmiy tillari deb hisoblangan dariy va pushtu tillarini jamiga ona tilim bo'lmish o'zbek tili ham Afg'oniston Islom Respublikasining uchinchi rasmiy tili sifatida tan olindi. O'zbek tilida yozilgan maqola, she'r va hikoyalarni gazeta-jurnallarda chiqarishga imkon yaratildi. Biroq hanuzgacha lingvistik jihatdan tahlil qilinmagan, bu sohada Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqidagi dehqonchilikka oid hech qanday lug'atnoma yoki kitob chop etilmagan. Shuning uchun men ushbu mavzuni ilmiy o'rganishni maqsad qilib oldim. Asosiy maqsad shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarning nutqidagi o'zbekcha so'zlarni yo'qolib ketishni oldini olish, ikkinchidan dehqonchilikka oid so'zlarning barchasini bir joyda to'plab ularni izohlab mazkur sohaga oid bir lug'at tuzish va uni Afg'oniston o'zbeklari orasida tarqatishdir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ildizi va tarixi bir ikki xalqning tilida mushtarak jihatlarning mavjudligi ularning uzoq tarixiga ishora qilsa, ulardagi ayrim farqlar yaqin tarixdagi holatlar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. “O'zbek tili so'zligi” Nurulloh Oltoy. Afg'oniston-Javzijon: 2007.
3. Вопросы текста в лингвистике, филологических науках. Нурфайзиева Дилшоода Омоновна. 2019. Maqola (Xorijiy jurnal). New Document(3).pdf.

4. “Problems of creating nation corpus of the uzbek language (level of synonyms)”
Eshmuminov Asqar International Scientific Journal Theoretical & Applied Science.
Volume: 73, Issue: 05 - Philadelphia, USA, 2019. P. 47-50
5. The interpretation of agricultural words in "Baburnama" Amini Aziz Ahmad. 2021,
“2ND GLOBAL SYMPOSIUM ON HUMANITY AND SCIENTIFIC
ADVANCEMENTS” (konferensiya) Florida USA Conference Proceedings 2021.pdf,
<http://www.conferencepublication.com>.
6. “Word formation patterns in uzbek language”. Davidov Yunus Jummayevich.
International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural
Development.16-21, 2021-yil. <http://www.conferenceseries.info/index.php/morocco>.
7. Written and Oral Skills in Foreign Language Lessons. Нурфайзиёва Дилшоода
Омоновна, 2020. Maqola (Xorijiy jurnal) German Journal(1).pdf
8. “Shimoliy Afg`oniston o`zbek shevalarida qo`shchilikka oid so`zlar” Amini Aziz
Ahmad 2021. “ОБРВЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ” (Xorijiy
jurnal)ОИИВ21ВЕКЕ. Февраль 2021. Том 2.pdf